

O'ZBEK OPERA SAN'ATINING 1940-1990 YILLAR DAVRIDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Saidov Jasur

BuxD Pedagogika instituti "Musiqa ta'limi yo'nalishi"

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ro'ziyev D Yu. professor, p.f.n.

Anotatsiya: Maqolada o'zbek opera san'atining 1940-1990 yillar davridagi rivojlanish bosqichlari, shuningdek, kompozitorlar Aleksandr Kazlovskiy, Sergey Vasilenko, Muxtor Ashrafiy, Sobir Boboyev, Ikrom Akbarov, Rustam Abdullayevlarning ushbu davrda yaratgan operalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Opera, drama, teatr, spektakl, repertuar, musiqiy kompazitsiya.

Аннотация: В статье рассказывается об этапах развития узбекского оперного искусства в период 1940-1990-х годов, а также об операх, созданных в этот период композиторами Александром Козловским, Сергеем Василенко, Мухтаром Ашрафием, Сабиром Бобоевым, Икромом Акбаровым, Рустамом Абдуллаевым.

Ключевые слова: Опера, драма, театр, спектакль, репертуар, музыкальная композиция.

Annotation: The article tells about the stages of development of the Uzbek opera art in the period of 1940-1990s, as well as about the operas created during this period by composers Alexander Kozlovsky, Sergey Vasilenko, Mukhtar Ashrafi, Sabir Boboев, Ikrom Akbarov, Rustam Abdullayev.

Key words: Opera, drama, theatre, performance, repertoire, musical composition.

20-asrning 40-yillaridan boshlab o'zbek opera san'atining yo'nalishida yangi davr boshlandi. 40-50 yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri sahnasida bir necha opera asarlari sahnalashtiriladi. Uning repertuaridan rus va chet el asarlari o'rin olib, shular qatoriga qardosh xalqlar kompazitorlarining asarlari ham teatr sahnasidan joy oldi. Lekin ko'zga tashlangan muammolardan eng asosiysi bu milliy o'zbek operalarini ijod qilish, ularni sahnalashtirish va tomoshabinlarga yetkazishdan iborat edi. Birin-ketin turli mavzularda yaratilgan operalar paydo bo'la boshladи. 1940-yilda G.M.Glier va T.Sodiqovlar hamkorlikda "Layli va Majnun" operasini ijod qilishdi va bu asar Alisher Navoiyning shu nomli poemasi asosida edi. Ushbu operada obrazlar ariyalarida o'zbek musiqa merosi bo'lgan maqomlar, xalq kuylari va qo'shiqlari asos bo'lib unda "Iroq", "Segoh", "Ushshoq", "Chorzarb", "Bayot", "Chapandozi gulyor"lar ishlatalgan. Ikkinchchi jahon urushi yillarida vatanparvarlik va

tarixiy qahramonlik mavzularida Aleksandr Kazlovskiyning "Ulug'bek", O.Cheshkoning "Mahmud Tarobiy" operalari yaratildi. 1940- yil ulug' "Farg'ona kanali" xalq tomonidan hashar yo'li oraqlari qurilishi munosabati bilan Farg'ona kanai quruvchilariga bag'ishlangan kompazitorlar Sergey Vasilenko va Muxtor Ashrafiy hamkorligida "Ulug' kanal" operasi yaratildi va 1941-yili sahna yuzini ko'rdi. A.Kazlovskiy o'zining eng taniqli asari "Ulug'bek" operasini 1942-yilda (1958-yilda qayta ishlangan) yaratadi, uning sahnalashtirilishi O'zbekiston SSR musiqa tarixida yirik voqeа bo'lgan. Urushdan keyingi yillarda birinchi bolalar o'zbek operasi "Yoriltosh" yaratildi. Kompazitor Sobir Boboyev ushbu asarni yaratishda har bir bolaga tanish bo'lgan xalq qo'shiqlaridan foydalangan. Albatta bu asarning bolalarga ta'sirchanligini oshirishga, sahnada ro'y berayotgan voqealarning bolalarcha dunyo qarashini o'stirishga xizmat qilgan. Urushdan keyingi dastlabki yillarda ko'proq musiqali drama rivojlangan bo'lsa, 50-yillarning ikkinchi yarmida kompazitorlarning opera janriga qiziqishlari sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu davrda yaratilgan musiqaviy sahna asarlarini xarakterlar ekanmiz, birinchidan, dramaturgiya mazmuni voqelikning muhim tomonini aks ettirishga intilishi natijasida zamonaviy mavzuda keskin burilish kashf etgani, ikkinchidan esa o'zbek kompazitorlarining mustaqil ijod qila boshlanishi ko'zga tashlanadi.

Mavzu va badiiy jihatdan saviyasi turlicha bo'lgan o'zbek operalari tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilishdi. Ba'zilari sahnadan tez tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rinni egallagan. Shulardam ahamyatliroqlari kompazitor Tolibjon Sodiqov tomonidan 1949-yilda yaratilgan "Gulsara" operasi haqida gapiradigan bo'lsak Gulsara operasi avvallari yozilgan shu nomli musiqali drama singari o'zbek ayollarining ozodlikka chiqish mavzusiga bag'ishlangan. Albatta "Gulsara" operasi avvalgi musiqali drama asariga nisbatan boshqacharoq qabul qilindi (oradan bir necha yillar o'tgan). Vahshiyona mutaasiblik ham, paranji tashlagani uchun qonli o'ch olish ham uzoq o'tmishga qolib ketgan edi. Lekin eski ideologiya e'tiqodlari, xususan ayollarga nisbatan boy-feodallargacha munosabat holi hayotda uchrab turadi. Shuning uchun ularga qarshi kurash o'z keskinligini yo'qotmagan edi. Ko'pgina o'zbek ayollarining hayoti kurashi, orzulari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Gulsaraning taqdiri tomoshabinlar qalbiga aks-sadosini topar edi. "Gulsara"ning ommabobligi, hayotiyligi ham shundadir. Librettoni yozganlar K.Yashin bilan M.Muhammadovlar yaxlit izchil rivojlangan voqeani yaratishga muvoffaqt bo'lganlar. Ayniqsa bosh qahramon obrazi to'laqonli chiqqan. Operaning boshlanishida u zaif, itoatkor, ongida ayolni gullarga itoatkor bo'lishga mahkum qilgan eski musulmon aqidalari ustunlik qiladi. Lekin asta-sekin chuqur javoblar tufayli Gulsara o'tmish sarqidlariga qarshi ochiq, shiddatli kurashish zarurligini aniqlaydi. Opera asosiga T. Jalilov yig'ib olgan musiqali dramadagi kuy va ohanglar kirgan. Lekin T. Sodiqov va R. Glier tomonidan qayta ishlangan kuylar va

yangi partituralar ham oz emas. Ba’zi bir ariya va ansambllarning kuylari yetakchi musiqa mavzulari darajasiga ko‘tarilgan. Operaga leytmativ (kuyni olib boruvchi) va leyttema kabi muhim elementlar kiritilgan. Bosh qahramon Gulsara va Qodirning partiyalari ashula xarakteridagi kuylarga asoslangan. Ba’zi ariyalar milliy folklorning ayol namunalaridir. Bu borada Qodirning ariyasi (4-pardadagi) iliq, qalban yaqin, ifodali, kuyi ibratlidir. “Gulsara”da mualliflarning musiqali obrazlarning individuallashga intilish sezilib turadi. Opera dramaturgiyasi elementlari paydo bo‘ladi. Lekin bu tendensiya hamma vaqt ham bilinavermaydi. Barcha kamchiliklarga qaramasdan, o‘zbek musiqa san’atida yangi janr, milliy o‘zbek operasining ijod qilinishi va operaning postanovkasi katta madaniy ahamiyatga moyillik voqeа bo‘lgan.

1950-1966 yillar davomida bir necha o‘zbek milliy operalari ijod qilinib, teatr sahnasida qo‘yildi. Oldingi yillar ijod qilingan operalar: S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning “Ulug‘ kanal”, T.Jalilov va B.Brovsinlarning “Toxir va Zuxro”, G.Mushel va V.Uspenskiylarning “Farkod va Shirin” operalari bilan bir qatorda yangi ijod qilingan o‘zbek milliy operalari ham asta-sekin musiqa san’atining opera janrida ijod qilinib, sahna yuzini ko‘rdi. Sahnada namoyish etilgan operalar qayta ishlanib yangi tahrirda yuzaga keldi. Masalan, M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning “Ulug‘ kanal” deb nomlangan operasi yangi tahrirda “Baxt vodiysi” deb o‘zgartirib namoyish etildi. 1958-yildan boshlab yangi teatr mavsumi boshlandi, o‘zbek kompazitorlari yangi opera asarlarini sahnalashtira boshladilar. Bular Muxtor Ashrafiyning “Dilorom” (1958), Tolibjon Sodiqov, Yunus Rajabiy, S.B.Zeyzman va D.Zokirovlarning “Zaynab va Omon” (1958), Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” (1959), Sobir Boboyevning “Hamza” (1961), M.Ashrafiyning “Shoir qalbi” (1962), M.Yusupovning “Xorazm qo‘shig‘i”, R.Hamroyevning “Zulmatdan ziyo” (1966) operalaridir. Mavzu va badiiy saviyasi har xil bo‘lgan mazmunli asarlar tomoshabinlar tomonidan turlicha qabul qilindi. Ba’zilari sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o‘rin egalladi. Aytishimiz joizki, 1950-yillarning oxiri o‘zbek musiqali teatri tarixida yangi opera janrining paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi.

1970-80 yillarda o‘zbek kompazitorlari opera janrini mazmun jihatidan boyitdilar. Ushbu davr ichida tarixiy “Mangulik” L.Musayev, “Fidoyilar” Sobir Boboyev, zamonaviy “Sadoqat” Rustam Abdullayev, atoqli shaxslarga bag‘ishlangan “So‘g‘d elining qoploni” Ikrom Akbarov, “Zebiniso” Sayfi Jalil, “Alisher Navoiy” Mutal Burxonov shuningdek, kamer operalar “Sohilda to‘qnashuv” N. Zoirov, “Ona qalbi” Xabibullo Rahimov va boshqa operalar yaratildi, sahna yuzini ko‘rdi. 1970-1980-yillar o‘zbek opera tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda yangi mavzular majmuiga mos keladigan musiqiy-ifodaviy vositalarni qo‘llash, o‘z mualliflik tilini topish kabi omillar bilan bir qatorda, operalar mavzu jihatidan boyiganligi kompazitirlarning o‘z asarlarida ommaviy xalq kuylarini ko‘chirmay, balki mustaqil original kuylar yaratilganligini ko‘rish mumkin.

Tafakkurning ta'sir doirasi opera sahnalashtiruvchisiga tinglovchini asar mazmunidan tashqari hayot va falsafiy mushoxadalar yuritishga yo'naltirishga imkon yaratadi. Sahnaviy talqin orqali yuzaga kelgan eshitish qobilyati va obrazlar majmuini qabul qilish jarayoniga ijodiy fikrlashni, ongning anglangan his-tuyg'usini jalg qilib yangi ko'rinishlar, obrazlar, tasavvular, taqqoslashlarni yuzaga keltiradi. Ta'sir va umumlashtirishning keng doirasiga murojaat 1977-yilda yaratilgan. I.Akbarov "So'g'd elening qoploni" operasining sahnalashtirilganligida namoyon bo'ladi. Opera dramaturgiyasi, musiqiy materiali, obrazlar tizimi nuqtai nazaridan o'ziga xos murakkab asardir. I.Akbarov opera rang-barang ifoda vositalarini kuylaydi, kantilena, rechitativ, polifonik unsirlar bilan boyitilgan murakkab garmonik tildan unumli foydalanadi. Ifoda vositalarining ko'p qo'llanilishida musiqa va voqeanning bo'ysinishi juda mushkul bo'ladi. Sipitamenning yaxlit va rang-barang obrazi operada zamonaviy tinglovchi, uning bu qahramon haqidagi tasavvurlari nuqtai nazaridan tasvirlab beriladi. Umumlashuvning obrazli kuchi zamonaviy opera tinglovchisida rivojlangan tasavvurli tafakkur bilan bo'lingan. Shu jumladan Ruxshona obrazi ham. Qahramonlarning shaxsiy xususiyatlarini moslashuvi ularning tashqi xarakteri, tavsiloti ohanglaridan kelib chiqqan plastika, grim, kastyumlar ham aniqlab berdi. I.Akbarovning "So'g'd elining qoploni" operasi qarama-qarshi ohang dramaturgiyasi nuqtai nazardan qiziqarlidir. Asosiy dramatik nizo so'g'd xalqining bosqinchilariga qarshi kurashi bo'lib mazkur asarda ikkita ohang muhitning qarama-qarshi munosabatini belgilab beradi. Biri xalq, spitamen, Ruxshona, chol obrazlari bilan bog'liq. Ikkinchisi Iskandar va uning yaqinlarini tasvirlab, ko'proq cholg'u musiqasi bilan xarakterlanadi. Mazkur ohang muhiti xromatik melodik xarakatlar, noturg'un garmoniyalar bilan boyitilgan bo'lib, kuychanlikdan mustasnodir. Bu ikkita muhit qarama-qarshi qo'yiladi va operaning dramatik rivojida to'qnashadi.

1980-yil Kompazitor Rustam Abdullayev "Sadoqat" operasini yaratadi. O.Matchon librettosi 2 parda 5 ko'rinishdan iborat. Premyerasi 1981-yil 4-fevralda Samarqandda bo'lib o'tdi. Qatnashuvchilar: Zulfiya-soprano, Xamid Olimjon-tenor, G'afur G'ulom-bariton, Oybek-bas, Baxshi-tenor, yosh shoira-metso soprano, shoirlar, xalq. Opera bugungi kungacha Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akadamik katta teatrda ijro etib kelinmoqda. Operada ohang dramaturgiyasi batafsil ishlab chiqilgan. Opera taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya va uning umr yo'ldoshi shoir Xamid Olimjon hayotiga bag'ishlangan. Zulfiyaning ohang tavsiloti ifodaviy vositalarning keng doirasini rechitativdan boshlab keng va kuychan xushohanglik qamrab oladi. Zulfiyaning kirish qismidagi rechitativida musiqiy nutq ohangning nozik his etilishi namoyon bo'ladi. Alovida so'zlarga urg'u berish, jumlalardagi ma'noli urg'ular musiqadagi o'xshashlik xususiyatlarini topadi, so'zlarning ifodaviyligini chuqurlashtiradi.

Aynan ushbu davrda yaratilgan operalarda sahnaviy kompazitsiya sifatida badiiy obrazning mavjudligi boshqa obrazlar bilan hamnafaslikda namoyon bo‘ladi. Obrazlar tizimida dramatizm namoyon bo‘ladi, obrazlar to‘qnashuvi natijasida nizo vujudga keladi. Obrazlarning o‘zaro munosabati opera dramaturgiyasining rivojlanishini ta’minlaydi. Faqatgina boshqa qahramonlar bilan munosabatdagina operaning bosh qahramoni o‘zini haqiqiy dramatik obraz sifatida his qiladi. Qahramonlarning murakkab munosabatlarida operadagi syujet qirralarining butun murakkab ruhiy qarama-qarshiliklari oolib beriladi. Bundan kelib chiqadiki bu davrda yaratilgan operalarning asosini obrazli tizim tashkil etib, unda har bir qahramon boshqa obrazlar singari asarning ajralmas qismini tashkil etadi. Tizim tuzilishining asosiy belgisi ichki mutanosiblikning bo‘ysunishi hisoblanadi. Operada bu asosiy harakatlanuvchi kuch hisoblangan bosh qahramonning atrofida voqeа mujassamlashuvida namoyon bo‘ladi. Bosh qahramon obrazi odatda juda murakkab va rang-barangdir. Asarda hech bir voqeа bosh qahramonning ishtirokisiz o‘tmaydi. Boshqa barcha ishtirokchilar esa voqealar va ohang dramaturgiysi uzlusizligida asoslangan ichki jipslashish tamoyili asosida jarayonga jalb etiladi. Mutal Burhonov “Alisher Navoiy” operasida Navoiy, Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” operasida Maysara kabi bosh qahramonlar mana shunday obrazlarga misol bo‘la oladi. Bosh qahramon atrofida birlashgan obrazlar qarama-qarshi kuchlarni aniqlab beruvchi obrazli tuzilmani tashkil etadi va asosan kontrast taqqoslash yoki nizoli to‘qnashuv xarakterini o‘zida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Пеккер Я. “Узбекская опера” Москва, 1984.
2. Murodova. D “Mustaqillik davri o‘zbek kompazitorlik ijodiyoti to‘g‘risida musiqa ijodiyoti masalalari” Toshkent, 2002.
3. Jabborov. A “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent, 2004.
4. T. Y. Solomonova “O‘zbek musiqasi tarixi” Toshkent, 1981.
5. Rauf Qodirov “Ommabop musiqiy glossariy” Toshkent, 2016.
6. Rustam Abdullayev “Opera dramaturgiysi” Toshkent, 2007.
7. Plungyan. V “Maysaraning ishi” S.Yudakov Toshkent, 1991.